



ASES
ACADEMY OF SCIENTIFIC AND
EDUCATIONAL STUDIES




ORIENTAL
UNIVERSITETI



ASES XI. INTERNATIONAL SOCIAL SCIENCES CONGRESS

28 -30 November 2025, Uzbekistan

CONGRESS BOOK

EDITOR: Prof Dr.QODIROV GAYRAT

ISBN: 978-625-92930-0-4

Ases XI. Uluslararası Sosyal Bilimler Kongresi

**28-30 KASIM 2025
Jizzax, UZBEKISTAN**

EDITOR
Prof. Dr. QODIROV GAYRAT

COPYRIGHT © 2025
BY ASES CONGRESS ORGANIZATION
PUBLISHING COMPANY LIMITED

ALL RIGHTS RESERVED. NO PART OF THIS PUBLICATION MAY BE REPRODUCED, DISTRIBUTED OR TRANSMITTED IN ANY FORM OR BY ANY MEANS, INCLUDING PHOTOCOPYING, RECORDING OR OTHER ELECTRONIC OR MECHANICAL METHODS, WITHOUT THE PRIOR WRITTEN PERMISSION OF THE PUBLISHER, EXCEPT IN THE CASE OF BRIEF QUOTATIONS EMBODIED IN CRITICAL REVIEWS AND CERTAIN OTHER NONCOMMERCIAL USES PERMITTED BY COPYRIGHT LAW. ASES CONGRESS ORGANIZATION PUBLISHING® IT IS RESPONSIBILITY OF THE AUTHOR TO ABIDE BY THE PUBLISHING ETHICS RULES.

ASES PUBLICATIONS – 2025©

LICANCE KEY: 2022/ 63715

25.12.2025

ISBN: 978-625-92930-0-4

Assoc.Prof. DJABBAROV SHERZOD

IZZAH DEVLET PEDAGOJI UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc.Prof. Erkam TEMIR

KASTAMONU UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc.Prof. TURSUNOV DİYOR

IZZAH DEVLET PEDAGOJI UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof. ISAQULOV TO'LGIN MAHMUD O'G'LI

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof. MUROTMUSAYEV KOMILJON BO'RIBOYEVICH

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof. KARIMOVA SHAHLO G'ANIYEVNA

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof.TOSHOV MUHIDDIN JO'RABOYEVICH

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof.ALIMBAYEVA SHAHLO TURSUNOVNA

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof. NORQO'ZIYEV DONIYOR

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof.EGAMBERDIYEVA YULDUZ XAMROQUL QIZI

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof.TAYLAKOVA DILNOZA NORBEKOVNA

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof. ONGALOV AKMAL NAVRUZOVICH

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof.BAYJANOV FURQAT

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof.MAMADIYAROV JAMOL BAXODIROVICH

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

ASES XI. INTERNATIONAL CONGRESS OF SOCIAL SCIENCES
November 28-30, 2025 JIZZAX, UZBEKISTAN
CONFERENCE PROGRAM

28.11.2025

FRIDAY / 14:00-16:30 (Türkiye Time)

SESSION: 2 HALL: 9/ MODERATOR

Doç. Alimbayeva Shahlo Tursunovna

AUTHORS	UNIVERSITY/INSTITUTION	TOPIC TITLE
EGAMOVA SHOXIDA DJALILOVNA	Oriental universiteti	ALISHER NAVOIY "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDAGI MAISHIY LEKSIK
EGAMBERDIEVA SHAKHZODA DAMIROVNA	Oriental universiteti	PSYCHOLINGUISTIC MECHANISMS OF INFLUENCE IN ADVERTISING DISCOURSE
Prof. EGAMBERDIEVA FARIDA OKTAMOVNA	Oriental universiteti	NEUROPEDAGOGY AND COGNITIVE ACTIVATION IN MODERN EDUCATION
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	Oriental universiteti	TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI
Toshov Muhiddin Jo'rabayevich	Oriental universiteti	THE ROLE OF PARENTS AND SOCIETY IN INCLUSIVE EDUCATION.
Doç. Alimbayeva Shahlo Tursunovna	Oriental universiteti	Alisher Navoiy asarlarida etnopsixologiyaga oid qarashlar talqini
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	Oriental universiteti	TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI
Egamberdiyeva Yulduz Xamroqul qizi	Oriental universiteti	O'ZBEKISTON MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUCHILARIGA TABIIY FANLAR DARSLARINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

-“Oriental” universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnika vositalaridan, interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari, dars samaradorligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'quv faoliyati, interfaol usul, mantiqiy tafakkur, tanqidiylik, ijodiylik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования современных технических средств и интерактивных методов для повышения качества образования, а также психологические факторы, влияющие на эффективность уроков.

Ключевые слова: учебная деятельность, интерактивный метод, логическое мышление, критичность, креативность.

Abstract: This article discusses the possibilities of using modern technical means and interactive methods to improve the quality of education, as well as psychological factors that affect the effectiveness of lessons.

Key words: educational activities, interactive method, logical thinking, criticality, creativity.

1125

Kelajak avlodni har tomonlama kamol topishida unga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning o'рни beqiyosdir. Sifatli va samarali ta'lim olgan yosh avloddan yurt ravnaqi uchun hissa qo'shuvchi shaxslar yetishib chiqishini kutish o'rinli holat albatta. Bu o'rinda “ta'limni samarali bo'lishi nimalarga bog'liq?”, “Qanday qilib o'quvchilarga sifatli ta'lim berish mumkin?” kabi savollar tug'ilishi tabiiy.

Yu.A.Samarin fikricha [1], o'quv faoliyati samaradorligining ko'rsatkichi o'quvchilar tafakkurining tizimliliigi va dinamikligining kengayishida namoyon bo'ladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: ta'lim natijasi o'laroq o'quvchi tizimli, mantiqan uzviy bo'g'liqlikda fikr yurita olsa, muammo doirasida keng mushohada qila olsa, talim samarali natija berganini anglatadi. Shunday ekan, pedagog doimo ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda o'quvchining mavzuni ko'r-ko'rona yodlashiga emas, shu mavzu doirasida mustaqil fikr bildira olishiga ham erishishi lozim.

N.D.Levitov [1] mazkur muammo bilan bevosita shug'ullanmagan bo'lsa-da, lekin o'qituvchi tomonidan o'quv faoliyatini boshqarish imkoniyati va uning mezonlari to'g'risida muhim fikrlarni ilgari suradi. O'quv faoliyatini idora qilish uchun quyidagi jabhalar ishtirok etishi shart:

- 1) tafakkurning mustaqilligi;
- 2) o'quv materialining tez va puxta o'zlashtirilishi;
- 3) o'quvchilardagi aqliy topqirlik;

4) ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyat mohiyatiga chuqur kirib borish, ya'ni muhim alomatni nomuhimdan ajrata bilish;

5) fikrlashda tanqidiylik, ijodiylik va boshqalar.

Bularning muayyan tizim shakliga kelganligi ta'limni optimallashtirishning puxta negizini va shart-sharoitini yaratadi.

O'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur [2]. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o'qituvchining: «Nima uchun?», «Qanday maqsadda?», «Sabablari qanday?», «Natija nima uchun shunday bo'ldi?» singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o'z loyihalarini tuzish va himoya qilish o'quvchilar tafakkurining ma'nodor va unumdor bo'lishiga xizmat qiladi.

O'quvchilar faolligini ta'minlash uchun interfaol usullarni qo'llash darsdagi jonli muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Dastavval, o'tilgan mavzularni takrorlashda zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda "wheel of names" [3] usulini qo'llash mumkin. Bunda "online" tizim orqali maxsus havolaga kirilib, aylanib turuvchi doira aks etgan oyna ochiladi. U yerga o'qituvchi avvaldan savollar yozib qo'yadi va aylantirish tugmasi bosilsa, doira aylanib, bir savolda to'xtaydi. To'xtagan savolga o'quvchilar javob beradilar. Bu usul rangli, ovozli, qarsaklar aks etgan jihatlar bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi hamda "dars" muhitidan ko'ra "o'yin" muhitini his qilinishiga, ichki zo'riqishning oldi olinishiga yordam beradi.

Yangi mavzu bilan o'quvchilarni tanishtirishda, mavzu nomini to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan, aqliy hujum usullaridan bo'lmish "Warm up" texnologiyasini qo'llash mumkin. "Warm up" usuli "uyg'onish", "qizib olish" ma'nolarini anglatib, o'quvchilarning faollashuviga yordam beradi. Bunda dastavval o'tiladigan mavzu bo'yicha savol-javob qilinib, so'ng o'quvchilardan o'sha kungi mavzuning nomini topish so'raladi. Masalan, "Tarbiya" darslarini tashkil etishda o'qituvchi dastavval o'tiladigan mavzuning mohiyatini aks ettiruvchi 1-2 ta savollar beradi. Muhokamadan so'ng o'qituvchi "Shu muhokama qilingan ma'lumotlarni hisobga olib, bugungi mavzuning nomini toping", deya ko'rsatma beradi. Ekran yoki doskada mavzu nomidagi har bir so'z to'g'ri to'rtburchak bilan berkitilgan bo'ladi. O'quvchilar mavzu nomidagi so'zlarni topa boshlaganlarida, shakl ortidagi so'zlar ko'rsatila boshlanadi. Barcha so'zlar topib bo'lingach, o'tiladigan mavzu nomi to'liq ko'rinadi. Bu interfaol usul o'quvchi diqqatini dars mavzusiga jalb etishning samarali usulidir. Diqqat barcha bilish jarayonlarining "eshigi" sanalar ekan, diqqatni mavzuga to'liq jalb qilinishi o'quvchilar tomonidan materialni yaxshi idrok qilinishi, xotirada yaxshi saqlanishi, qolaversa, shu doirada fikr yurita olinishiga sabab bo'ladi.

Dars materiallari orasidagi qoida, nazariy ma'lumotlarni tushuntirishda "Running dictation" interfaol usuli ancha samarali usullardandir. Bunda xona devorlariga dars boshlanishidan avval shu kuni o'tiladigan mavzuga tegishli qoida yoki nazariy ma'lumotlar ilib qo'yiladi. Bunda rangli qog'ozlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bitta qog'ozga bitta ma'lumot yoki qoida yoziladi. O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi va shu guruh a'zolari orasidan "yuguruvchi" odam saylash so'raladi. Har bir guruhga o'zidan uzoqroq masofadagi devorga ilingan qoidani yozish vazifasi topshiriladi. O'qituvchi ko'rsatmasiga ko'ra, har bir guruhdagi "yuguruvchilar" chiqib, o'z guruhiga vazifa qilib topshirilgan qoidani eslab qolganicha borib o'qib keladi va guruhdoshlariga aytadi, qolgan guruh a'zolari bu qoidani yozib borishlari lozim. Qoidalar to'liq

yoziq bo'lingach, o'yin to'xtatiladi va guruh vakillari yoziq olingan qoidalarni o'qib eshittirishi jaroyida boshqa guruh o'quvchilari qoida qanchalik to'g'ri yoziqlanini qog'oz yoki ekrandagi yoziq asosida tekshirib turadilar. Bu usul nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishda o'quvchilardagi zerikish holatlarining oldini oladi, qoidalarning har bir so'ziga diqqat qaratishlariga sabab bo'ladi. Shuningdek, bu interfaol usul zamonaviy dars o'tish texnologiyasiga to'la muvofiq kelgan holda darsda o'quvchilarning qimirlamay bir joyda o'tirishlari, oqibatda zo'riqish va toliqish holati vujudga kelishining oldini oladi.

Dars mavzusiga tegishli asosiy ma'lumotlar muhokama qilinib tushuntirib o'tilgach, mavzuni mustahkamlash uchun "Snow ball" usulini qo'llash mumkin. Bu usulda har bir o'quvchiga qog'ozcha tarqatib chiqiladi. O'quvchilar bu qog'ozlarga shu kungi mavzuda ishlatilgan atamalardan birini yoziqladilar. So'ng o'qituvchi ko'rsatmasi bilan o'quvchilar qog'ozlarni g'ijimlab, "Snow ball", ya'ni qor bo'roni o'yini tarzida bir-birlariga otadilar. Har bir o'quvchi o'ziga tushgan qog'ozni olib, o'sha yerda yoziqlan atamaga izoh beradi. Bu darsda o'tilgan mavzuni yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Darsning yakuniy qismida "Feed back" (Qaytar aloqa) usulini qo'llagan holda, barcha o'quvchilarga "Exit tickets" (Chiqish biletleri) tarqatib chiqiladi. Bu biletlar orqali o'quvchilar shu kungi dars va qo'llangan usullardagi o'ziga yoqqan va yoqmagan jihatlar haqida qisqa shaklda ma'lumot yoziqladi. Bu interfaol metod o'quvchilarda o'z fikrini bayon eta olish, umumlashtirish va xulosa chiqara olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, o'qituvchi uchun ham keyingi darslarda o'quvchilar xususiyatlariga muvofiq keluvchi usullarni to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Demak, dars samaradorligiga erishish uchun zamonaviy texnika vositalaridan, interfaol usullardan foydalangan holda ta'lim berish o'quvchilarning faollashuviga, darsni puxta o'zlashtirishlariga yordam beruvchi muhim omil ekanligini pedagoglar doimo inobatga olishlari lozim.

Foydalanilgan manbalar:

1. Do'stmuhammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2013.
2. Do'stmuhammedova Sh.A., Sh.T.Alimbayeva. Shaxs hissiy emotsional holatlari psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. Monografiya. – T.:Maxalla va oila nashriyoti, 2022.
3. <https://wheelofnames.com>.